

MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR ORQALI XUFYONA IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI TAHLILI

Raxmanov Laziz Erkabaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamizda so‘nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta‘mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Annotasiya: V dannoy state opisany shirokomasshtabnyye reformy, napravlenneye na sozdanie blagopriyatnykh usloviy dlya vedeniya predprinimatelskoy deyatelnoy v nalogovoy i finansovoy sferax, uluchshenie investitsionnogo klimata i dalneyshee ukreplenie doveriya delovyykh krugov k nashey respublike za poslednie gody. Pri etom byli izucheny takie napravleniya, kak podpolnaya trgovlya i obshchepit, perevozki avtotransportom, jilishnoe stroitelstvo i remont, okazanie bytovyykh uslug, sformirovany nauchno-prakticheskie vyvody i predlozheniya po zarubejnomu opytu i yego primeneniyu v nashey strane.

Klyuchevyye slova: nalogovyye postupleniya, analiz, riski, effektivnost, sifrovaya platforma, metody i instrumenty, peredovyye informatsionno-kommunikatsionnyye texnologii, analiz, optimizatsiya, nalogovyye lgoty, nalogovaya stavka.

Annotation: This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish: Keyingi yillarda O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, uning oldini olishda boshqa instrumentlar singari, soliqlardan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Soliqlarni nazorati yanada erkinlashtirildi, soliq stavklari, ayniqsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi, mol-mulk solig‘i stavkasi sezirali darajada kamaytirildi, insofli soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlashga oid choralar oshirilmoqda. Shunga qaramasdan milliy iqtisodiyotimizda xufiyona iqtisodiyot darajasi yuqorida darajada saqlanib qolinmoqda. Bunda boshqa omillar qatori soliq instrumentlaridan samarali foyladalanishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharxi.

Hozirgi davrda xufiyona iqtisodiyotni ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish yo‘llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Mahkamovning (2014) fikricha, Davlat tomonidan belgilangan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaslik, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa ob‘ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, soliq yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish borasida mamlakatimizda amal qilib kelayotgan bir qator qonun va qonun osti me‘yoriy tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish orqali mavjud muammolarni qonun yo‘li bilan hal qilish zarur. Bu esa, o‘z navbatida ushbu sohadagi jinoyatlarni oldini olishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi”. Soliqdan qochish bu soliq to‘lovchining iqtisodiy egoistik tuyg‘usiga asosan yuzaga kelsada, biroq, u jamiyatning iqtisodiy sohalari orqali ijtimoiy muammo darajasida namoyon bo‘lib, siyosiy masalalarga aylanadi.

Bu borada Bavariya moliya vaziri Guver "Germaniyada soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash istagi tug‘ilish istagidan kuchliroqdir" deganda soliqdan bo‘yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko‘rsatib o‘tgan edi (Kottke, 1998).

Abdullina (2016) fikricha, soliqdan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarini monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarni o‘zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashmaganligi oqibatida soliqdan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo‘lishiga ta’sir qilmoqda.

Vachugov (2019) soliqdan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” tushunchasini ham tushuntirib o‘tadi. Uning fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yashirin tuzilmalarning faoliyati bizga “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” atamasini kiritish

imkonini beradi, uning ta’rifi quydagicha ifodalanishi mumkin: soliq to‘lovchilarning o‘zlari ham, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni ta’minlaydigan xizmatlarni ko‘rsatadigan soya tuzilmalari tushuniladi”.

Rayzberg (1997) fikricha, yashirin iqtisodiyotni – “reklama qilinmaydigan, ularning ishtirokchilari tomonidan yashirilmagan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmagan iqtisodiy jarayonlar” sifatida baholaydi.

Yefimichev (2000) esa, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bu-qonunda belgilangan soliqlarni to‘lash bo‘yicha qonunda belgilangan harakatlarni qasddan qilmaslik shaklida namoyonlik (harakatsizlik) hisoblanadi” deb ta’riflaydi.

Nudel (2007) “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash ijtimoiy xavflidir, jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliqqa tortish sohasida qonunda belgilangan soliqlarni va (yoki) yig‘imlarni to‘liq yoki qisman to‘lamaslikka qaratilgan harakat yoki harakatsizligidir” mazmunida tushuntiradi.

Mayburova, Kireenko, Ivanovalar (2013) esa, soliqdan qochishga quydagicha ta’rif beradi: “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash deganda soliq to‘lovchining soliq to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini o‘zgartirishning noqonuniy yo‘li tushunilishi kerak, bunda soliq organlaridan daromadlar va mol-mulkni yashirish, uydirma xarajatlar yaratish, shuningdek, qasddan buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini buzish” holatlari yuz beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo‘nalishlari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar(aslida ishlab chiqaruvchilari ham iste’molchi ham bo‘ladi)ning o‘z manfaatlari mavjud bo‘ladi. Bunday manfaatlar sirasiga iqtisodiy manfaatlar ustuvor bo‘lib, u individlarning boshqa manfaatlariga ro‘yobga chiqishining asosi ham bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning iqtisodiy manfaatlari ularni ayrim hollarda ularning jamiyatning manfaatlaridan tashqarida, unga qarshi holatda yuz berishini ham keltirib chiqaradi. Aynan ana shu “ayrim hollar”ni o‘zlarini ham keltirib chiqaruvchi omillar ham majdu bo‘ladi. Demak, jamiyatning iqtisodiy sohasidagi o‘ziga xosliklar umumiy qabul qilingan normalar (bu normalar aslida qonuniy yo‘l bilan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘ladi)ni qabul qilmaslik yoki ularni chetlab o‘tishga undovchi iqtisodiy manfaatlar ustun kelishi “o‘yin qoida”larining buzilishiga olib keladi. “O‘yin qoida”larining bunday tuzilishi, dastlab axloqsizlik sifatida baholanib (ijtimoiy normalarni mensimaslik sifatida) ularga oid

davlat tomonidan qonuniy choralar ko‘rib borilgan.

Davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy faoliyat yuritishning qoidalarini buzish, ularni chetlab o‘tish, ayniqsa, belgilangan soliqlarni to‘lamaslik, uni to‘lashdan turli yo‘llar bilan bo‘yin tovlash, davlatga tegishli bo‘lgan yerlarga ruxsat olmasdan dehqonchilik qilish va undan olinadigan daromadlar haqida davlatning tegishli organlarini xabardor qilmaslik va olgan daromadi doirasida soliq to‘lamaslik, boshqalarning mulkini talon taroj qilish, bojxona qoidalariga amal qilmaslik, shuningdek, lavozimini su‘iste‘mol qilish va shu kabi holatlar o‘z davrlarida turlicha nomlanib kelingan. Bunday nomlanishlar sifatida yuqorida ta’kidlaganimizdek, axloqsizlik, davlatga xiyonatkorlik, jamiyat o‘g‘risi, poraxo‘rlik kabilar bilan nomlanib, bunday shaxslarga turlicha jazo choralari qo‘llanilib kelingan.

Jahon iqtisodiy xo‘jaligining rivojlanib borishi, iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlarning kuchayib borishi, iqtisodiyotda ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi nisbat, har qaysi olingan milliy iqtisodiyot doirasida yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulot va uning real hajmini baholanishlarga oid ilmiy tadqiqotlarning yanada kuchayib borishi bunday jarayonlarga alohida ilmiy tadqiqot sifatida yondoshishni taqozo etdi.

O‘zbek olimlaridan A.O‘lmasov va Sh.Qobulovlar yashirin iqtisodiyot va xufiyona iqtisodiyotni sinomim kategoriya sifatida uni ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, [davlat](#) va [jamiyat](#) tomonidan nazorat qilinmaydigan, [soliqlar](#) to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy [faoliyat](#) turlari sifatida baholaydi. Ushbu olimlar yana shuni ta’kidlaydiki, uni oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, [iste‘mol](#) jarayonlari bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar ko‘rinishida bir guruh insofsiz shaxslarning manfaatlarini ifoda etadi. Xufiyona iqtisodiyot borasida keng tadqiqotlar olib borgan prof. X.Abulqosimovning ta’kidlashicha, “xufiyona iqtisodiyot deganda, (shadow economy) deb davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan rasmiy statistikada aks etmaydigan xo‘jalik faoliyatiga aytiladi. Bundan tashqari, xufiyonalik (yashirin) – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya’ni, an’analar va urfodatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat”¹.

“Kul rang” shaklidagi yashirin iqtisodiyot deb nomlanuvchi faoliyat mohiyatan olib qaralganda ro‘yxatga olinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy faoliyat qonun tomonidan taqiqlanmagan faoliyat

¹Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-490-бетлар.

tushuniladi. Bunda asosiy masala ishlab chiqarish jarayonlari va uning natijalarining belgilangan tartibda buxgalteriya va statistik hisoblarda aks ettirilmaydi, haqiqatda qiymat yaratilsada, ammo, ularning hajmi va miqdori rasmiy milliy mahsulotlar hajmida o'tirmaydi, o'z navbatida haqiqatdan ham iste'mol bozorida tovar yoki xizmat mavjud bo'ladi. Haqiqatda yaratilgan mahsulotlar bozorda iste'molni qondirishga xizmat qilsada, ular milliy manfaatlar uchun ishlaymaydi, qolaversa, ushbu mahsulotlar soliqqa tortilmay qolishi oqibatida ularning umumjamiyat manfaatlarini moliyalashtirishda ham ishtirok etmaydi.

Xufyona iqtisodiyotning eng xavfli shakli sifatida "qora" yashirin iqtisodiyot e'tirof etiladi. Xufyona iqtisodiyotning bu shakli qonunlarni umuman mensimaslik va asosan ta'qiqlangan faoliyat va tovar(xizmat)larni ishlab chiqarish hamda ularni rasmiy hisobga olmasdan, to'la to'kis o'zlashtirishga asoslangan iqtisodiy-huquqiy faoliyatga asoslanadi. Bunda uyushgan va individual jinoyatchilikka, zo'ravonlikka, o'g'rilik, bosqinchilik, odam savdosi, qimor o'yinlari, reket tovlamachilik, narkobiznes, qurol savdosi shu kabilarga asoslangan bo'ladi. Bu kabi xufyona iqtisodiyotda qonuniy va shaffof faoliyat natijasida ishlab topilgan daromadni qayta taqsimlash asosida jamiyatning nafaqat iqtisodiy jarayoniga, shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy va sotsial jarayonlariga ham salbiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, bu shakldagi iqtisodiy faoliyatdan davlat byudjetiga mablag' kelib tushmasligiga qaramasdan, ularni oldini olishga qaratilgan byudjet xarajatlarining oshishiga ham olib keladi, o'z navbatida boshqalarning qonuniy daromadlarini majburlash asosida qayta o'zlashtirib olinishi natijasida ham aholining real pul daromadlarining kamayishini keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash kerakki, xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi davlat ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishi va jamiyatga o'ziga xos turli majburiy normalar (qonunlar va davlat rahbarining mutloq vakolati doirasidagi farmonlari) asosidagi talablari joriy qilinishidan boshlaboq yuzaga kelgan, biroq, bu jarayonni iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy jarayon sifatidagi o'rniga baho berilmagan xolos. Birgina oddiy ko'rinishi soliq to'lamaslik yoki huquqi bu jihatdan ajratilmagan yer uchastkasidan foyda olish maqsadida foydalanish, bu kabi holatlar juda ko'p bo'lganligini mantiqiy aniqlash mumkin. Biroq, bu va boshqa kabi belgilangan qonuniy talab asosida iqtisodiy faoliyat ko'rsatmasdan va noqonuniy faoliyat asosida daromad olishni ilmiy jihatdan tadqiq qilish masalalari aslida yigirmanchi asrning 30 yillarida e'tibor berila boshlandi.

Yashirin iqtisodiyot davlat uchun soliq tushumlarining yo'qolishi, ishchilarning tengsizligi va ekspluatatsiyasi, qonunga bo'ysunmaslik va korrupsiya kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, u qonuniy korxonalar uchun raqobatni keltirib chiqarishi va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shu jihatdan olganda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash qonunbuzarlarga nisbatan qoidalar va jazo choralari kuchaytirish, soliq tizimini takomillashtirish, rasmiy bandlikni

rag'batlantirish va tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash lozimki, xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishda juda ko'p omillar, shu jumladan, moliyaviy instrumentlar sifatidagi omillar mavjud bo'ladi. Tadqiqot ishining ob'ektidan kelib chiqqan holda moliyaviy instrumentlarning xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish va uni kamaytirishdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Yashirin iqtisodiyot rasmiy, qonuniy iqtisodiyotdan farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega. Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan ba'zilari:

Noqonuniylik: Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyati uning ko'pgina faoliyatining noqonuniy yoki yarim qonuniyligidir. Bunga rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan, soliqqa tortilmasdan yoki qonuniy hisobga olinmasdan ishlash kiradi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash: Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan biri soliq to'lashdan bo'yin tovlashdir. Norasmiy sektordagi tadbirkorlar va ishchilar ko'pincha soliq to'lashdan qochishadi, natijada hukumat soliq tushumlarini yo'qotadi.

Tartibga solishning yo'qligi: Yashirin iqtisodiyot odatda davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish doirasidan tashqarida ishlaydi. Bu shuni anglatadiki, u rasmiy iqtisod kabi bir xil standartlar va qoidalarga bo'ysunmaydi.

Ro'yxatdan o'tmagan korxonalar: Yashirin iqtisodiyotdagi ko'plab kompaniyalar rasman ro'yxatdan o'tmagan va litsenziyalar va ruxsatnomalar olish kabi zarur rasmiyatchiliklarni bajarmaydilar.

Naqd puldan foydalanish: Yashirin iqtisodiyot ko'pincha naqd puldan foydalanish bilan tavsiflanadi, bu esa tranzaksiyalarni kamroq shaffof qiladi va hokimiyat organlariga kuzatishni qiyinlashtiradi.

Sug'urtasiz yoki ijtimoiy nafaqasiz ishlash: Norasmiy sektordagi ishchilar ko'pincha tibbiy sug'urta va pensiya nafaqalari kabi ijtimoiy himoyaga ega emas, bu esa ularni zaif va yomon mehnat sharoitlarida qoldirishi mumkin.

Korrupsiya: Yashirin iqtisodiyot korrupsiya tarqalishiga yordam berishi mumkin, chunki ko'plab noqonuniy harakatlar pora va korrupsionerlar bilan muomala qilishni talab qiladi.

Doimiy o'zgaruvchanlik: Yashirin iqtisodiyot qonunlar va qoidalardagi o'zgarishlarga javoban tez-tez o'zgarib turadi, bu esa hukumat uchun oldindan aytib bo'lmaydigan va unga qarshi kurashishni qiyinlashtiradi.

Noqonuniy yoki norasmiy faoliyat: Yashirin iqtisodiyot rasmiy qayd etilmagan yoki milliy statistikaga kiritilmagan faoliyatni o'z ichiga oladi. Bunga er osti ishlari, kontrabanda, noqonuniy tadbirkorlik va rasmiy qoidalar va qoidalarni chetlab o'tuvchi boshqa faoliyat kiradi.

Ijtimoiy ta'minotning etishmasligi: Soya iqtisodiyotida ishchilar ko'pincha tibbiy sug'urta, pensiya va rasmiy ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan boshqa imtiyozlar kabi ijtimoiy ta'minotdan mahrum bo'lishadi.

Kredit olish imkoniyati cheklangan: Yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchilar banklardan kredit olishda qiynalishi mumkin, chunki ular ko'pincha rasmiy moliyaviy hujjatlarni taqdim eta olmaydi.

Milliy xavfsizlikka tahdid: Yashirin iqtisodiyotning ayrim jihatlari, masalan, kontrabanda va noqonuniy qurol savdosi milliy xavfsizlik va dunyo tartibiga tahdid soladi.

Qiyinchilik: Norasmiy va yashirin tabiati tufayli, yashirin iqtisodiyotni nazorat qilish va tartibga solish qiyin bo'lishi mumkin. Uning kurashi qonun ustuvorligini kuchaytirish, soliq tizimida islohotlar va rasmiy bandlikni rag'batlantirish choralari ko'rishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar.

Umumiy qilib aytganda, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, xufyona iqtisodiyot bu iqtisodiyotning rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida faoliyat yuritadigan, moliyaviy-soliq instrumentlari orqali davlat tomonidan tartibga solinishi barqaror bo'lmagan, iqtisodiy-huquqiy va ijtimoiy-sotsial faoliyatdir.

Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda, muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo'l qo'ygan tashkilot ta'rischi va rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlarining ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilgan holda ushbu jismoniy shaxslarni yangidan tashkil etilayotgan sub'ektlarning ta'rischi yoki rahbari bo'lishiga cheklov qo'yish hamda Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo'mitasi o'zaro ma'lumotlar integratsiya qilishni ta'minlash moliya-soliq instrumentlar orqali xufyona iqtisodiyotning ma'lum darajada jilovlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Kottke K. (1998) «Gryaznye» den'gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti «gryaznyh» deneg. M.

2021 Абдуллина А.Р. (2016) Представители как субъекты уклонения от уплаты налогов с организации // Научная перспектива.. № 10. С. 37-38.,

Вачугов И.В. (2019) Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Налоги и налогообложение. – № 6. – С. 42.

Ефимичев П.С. (2000) Предмет и пределы доказывания по уголовным делам о налоговых преступлениях // Журнал Российского права. – №9.

Майбурова И.А., Киреев А.П., Иванова Ю.Б. (2013) Уклонение от уплаты

налогов. Проблемы и решения: монография для магистров, обучающихся по программам направления «Финансы и кредит» / И.А. Майбуров [и др.]; под ред. И.А. Майбурова, А.П. Киреенко, Ю.Б. Иванова. – М.: ЮНИТИДАНА, -с. 383.

Маҳкамов О. (2014) Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. йил, № 3-4.

Нормурзаев У. (2021). Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в узбекистане. *Economics and Education*, (6), 82–86. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285

Нормурзаев, У. (2023). Мамлакатимизда солиқ тизимида амалга оширилган ислохотлар таҳлили. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(4), 177–183. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1iss4-pp177-183>.

Нудель С.Л. (2007) Вопросы квалификации уголовно-наказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов. *Научные ведомости* № 2(33).

Райзберг Б.А. (1997) Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, – 496

Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.